

## JAMIYATNING MODERNIZATSIYALASHUVINING ILK KO'RINISHLARI VA MENTALITET.

**Bo'riyev Mansur**

*Tosjken kimyo texnologiya insituti  
tayanch doktoranti (97 774 09 87)*

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada jamiyatning modernizatsiyalashuvi sharoitida, modernizatsiya nazariyasi haqida fikr va g'oyalarini ilgari surgan. Yaniy a'nanaviy jamiyatdan zamonaviy jamiyatga o'tishning ilk klassik ko'rinishi hamda jamiyat mentalitetining ta'siri haqida fikr yuritilgan. Bugungi kunda modernizatsiyaning ilmiy talqinlari turlicha va xilma-xildir. Sharq va G'arb davlatlarning tuzilmalarida, siyosiy insitutlarni qarashlari va munosablari turlichaligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

### **Аннотация**

В данной статье он выдвигает свои взгляды и идеи на теорию модернизации в контексте модернизации общества. То есть первая классическая форма перехода от традиционного к современному обществу и влияние менталитета общества. Сегодня научные интерпретации модернизации разнообразны и разнообразны. В структурах Востока и Запада есть информация о различиях во взглядах и установках политических институтов.

### **Annotation**

In this article, he puts forward his views and ideas on the theory of modernization in the context of the modernization of society. That is, the first classical form of the transition from traditional to modern society and the influence of the mentality of society. Today, the scientific interpretations of modernization are diverse and varied. In the structures of the East and the West, there is information about the differences in views and attitudes of political institutions.

### **Kalit so'zlar:**

Jamiyat, modernizatsiya, modernizm, Amerika Qo'shma shtatlari, Jon Lokk, Sharq va G'arb davlatlari, D.Ajemo'g'li, Mamlakatlar tanazzuli sabablari: qudrat, farovonlik va kambag'allik manbalari, Angliya, "Uchar moki" dasgoxi, O'zbekiston, Yevropa, Osiyo va boshqa qit'alar, mamlakatlar, iqtisodiy-siyosiy va ilm-fan.

### **Ключевые слова:**

Общество, модернизация, модернизм, США, Джон Локк, Восток и Запад, Д. Аджемоглу, Причины упадка стран: источники силы, процветания и бедности, Англия, «Летающий челнок», Узбекистан, Европа, Азия и др. континентов, стран, экономических, политических и научных.

### **Keywords:**

Society, modernization, modernism, United States, John Locke, East and West, D. Ajemoglu, The causes of the decline of countries: sources of power, prosperity and poverty, England, "Flying Shuttle", Uzbekistan, Europe, Asia and other continents, countries, economic, political and scientific.

Jamiyatning modernizatsiyalashuvining ilk ko'rishlari va mentalitet.

Insoniyat tarixida yuz berganlar tendensiyalardan shuni ko'rish mumkinki, jamiyatda rivojlanish, yangilanish va modernizatsiya jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilga davlatlarda iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ilm –fan, madaniyat va boshqa sohalarga barqaror rivojlanish ro'y bergan. Bu Amerika Qo'shma Shtatlari tarixida kuzatilgan, yaniy 1787-yilda qabul qilingan AQSH konsitutsiyasini poydevori 1619-yilda AQSHning Jemystaun shahrida Umumiy majlis tuzilishi bilan boshlangan. Bu davrda AQSh Angiliya Qirolligining mustamlakasi va koloniyasi bo'lgan. Ingiliz faylusufi Jon Lokk tomonidan 1663-yilda ishlab chiqilgan Karolina mustamlakasida Angliya manfaatlarini himoya qiluvchi “Karolinaning asosiy nizomlari”<sup>1</sup> nomli xujjat ham AQSH jamiyatni shakllanishida va modernizatsiya qilishning ibtidosi bo'lib xizmat qildi.

Adabiyotlarda “modern” so'zi ingliz tilidagi “*modernity*” so'zidan olingan bo'lib - “hozirgi zamon, davr, vaqt” degan ma'nosini anglatadi. Modern so'zing kengroq ma'noda jamiyat va davlat rivojlanishini yorituvchi modernizatsiya so'zi qo'llaniladi. Modernizatsiya fransuz tilida “*moderisatio*” so'zidan olingan bo'lib yangi, zamon talabi hisobga olib jamiyat ehtiyojlarini ro'yob chiqaruvchi o'zgarish, rivojlanish, takomillashuv ma'nosini bildiradi.

Bugungi kunda modernizatsiyaning ilmiy talqinlari turlicha va xilma-xildir. Sharq va G'arb davlatlarning tuzilmalarida, siyosiy insitutlarni qarashlari va munosablari turlicha. Shunda kelib chiqib professor B Omonov tomonidan “modernizatsiya (an'anaviy) jamiyatni industrlashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy tuzumni transformasiyalash tushunilib, bu jarayonda davlat taraqqiyoti ijtimoiy-iqtisodiy konsepsiyasini qayta ko'rib chiqish, inson huquq-erkinliklarini yangi norma, standartlar asosida ta'minlash, shaxs jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlar tizimini yangicha, zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirish ko'zda tutiladi”<sup>2</sup>-deb ta'rif bergan.

Ma'lumki jamiyatni modernizatsiyalashuvi bu - an'anaviy jamiyatdan yoki xayot tarzidan zamonaviy jamiyatga o'tishdir. Bunda dunyo rivojlanishi, globallashuv ta'siridan tashqari, jamiyat ichida ham zamonaviy jamiyatga o'tish uchun davlat xoxish istagi va jamiyat manfaatdor bo'lishi kerak. Ayrim davrlarda jamiyat yangilanishi va texnologig yangiliklarga qarshiliklar xam bo'lgan. Yaniy Angliyada 1733-yilda “Uchar moki” dasgoxini ixtiro etilishi. Sanoat inqilobiga yaqqol misoldir va boshqa texnik mexanikalarni ixtiro qilinishi zadogonlar siyosiy, iqtisodiy zarar ko'radi. Xokimiyatdan masovo bo'lish xavfi, yer egaligan tushadigan daromatni keskin kamayishi, qo'l mexnati orqali kun ko'radigan xunarmandlarni texnologiya raqobati dosh bera olmaganligi sabab XVIII asrdagi jamiyat yangilanishiga keskin qarshilik ko'rsatadi. Lekin bu modernizatsiyani qo'llab quvatlangini uchun Angiliya o'z davrida iqtisodiy va siyosiy jixatdan qudratli davlatga aylandi. Aksincha bunga qarshilik qilgan mutloq monarxiya va zodagonlar xokimiyati kuchli bo'lgan Avstriya-Vengiriya va Chor Rossiyasi imperiyasi XIX-XX asrlarda rivojlanishdan orqada qoldi. Iqtisodiy va siyosiy turg'unlik sabab bu imperiyalar davr sinovlariga bardosh berolmay inqirozga yuz tutdi. Bu sanoatlashuvga va buni natijasida jamiyat yangilanishiga A.Robinson va D.Ajemo'g'li. “Mamlakatlar tanazzuli sabablari: qudrat,farovonlik va kambag'allik manbalari” asarida “bunyotkor buzg'unchilik” deb ta'rif beradi.

O'zbekiston o'z mustaqillikka erishgach davlat va jamiyatni yangilishlash maqsadida tub isloxtlar olib bordi. Yaniy modernizatsiya jarayoniga Islom Karimov “innovatsion texnologiyalarni joriy etish va jahon bozorida talab mavjud bo'lgan yangi turdagi tovarlar ishlab chiqarish...”<sup>3</sup> ni amalga oshirish jarayonlari bilan bog'liq

<sup>1</sup> A.Robinson va D.Ajemo'g'li. “Mamlakatlar tanazzuli sabablari: qudrat,farovonlik va kambag'allik manbalari”. –T.: “Nihol” nashriyoti, 2021.-B.47

<sup>2</sup> B.Omonov. “Jamiyatni modernizatsiyalashning kontseptual asoslari” monografiya.-T.: Aloqichi, 2019.-B. 7

<sup>3</sup> Каримов И.А. Мамлакатимизни модернизация қилиш ва янгилашни изчил давом эттириш – давр талаби // «Халқ сўзи», 2009 йил 14 февраль.

<https://conferencea.org>

ekanligi ta'kidlab o'tgan. Buni O'zbekistonning Yevropa, Osiyo va boshqa qit'alardagi mamlakatlar bilan iqtisodiy-siyosi va ilm-fan sohlaridagi a'loqalarini, hamkorliklarida ko'rishimiz mumkin.

Modernizatsiya jarayoni amaliyotda qo'llanilishi XVIII asr Ga'rbiy Yevropaga boshlangan, yangi texnika va ilm-fan ixtirolarni yaratilishi, dunyoviy ilmlarni keng qo'llanishi, muxandislik va texnik bilimlarni real xayotda amaliy foydalanish natijasi yuzga kelgan bo'lsar. IX asrda boshlangan islom sivilizatsiyasi va IX-XII, XIV-XVI asrlarda Markaziy Osiyo allamolari tomonidan diniy, dunyoviy, ijtimoiy, madaniy bilimlarni rivojlantirilishi, ilmiy intellektualni yuksak darajaga yetishi natijasida modernizatsiyaning nazariy ko'rinishi va uning mukammallashuvi ham ta'sir ko'rsatdi.

#### Adabiyotlar ro'yhati.

1. Каримов И.А. Мамлакатимизни модернизация қилиш ва янгилашни изчил давом эттириш – давр талаби // «Халқ сўзи», 2009 йил 14 февраль.
2. A.Robinson va D.Ajemo'g'li. "Mamlakatlar tanazzuli sabablari: qudrat, farovonlik va kambag'allik manbalari". –T.: "Nihol" nashriyoti, 2021.
3. B.Omonov. "Jamiyatni modernizatsiyalashning kontseptual asoslari" monografiya.-T .: Aloqichi, 2019.